

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil).– 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Valijonova Shaxzoda

n-TARTIBLI CHIZIQLI O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI BIR JINSLI BO'LMAGAN
DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI ANIQMAS KOEFFITSIYENTLAR USULIDA YECHISH 6-9

Mullaboev Omonboy, Bo'riyev Yusufjon

KO'P TILLI PARALLEL KORPUS ARXITEKTURASI VA GAPLARNI AVTOMATIK
MOSLASHTIRISH ALGORITMI 10-15

Soyipov Jasurali, G'aniyeva Maxfuza

FIZIKADAN MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARDA
TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA PISA
TADQIQOTLARINING AHAMIYATI 16-19

IQTISODIYOT FANLARI

G'ofurov Rashidjon, Nishonov Akmalxon

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI TOMONIDAN TO'LANADIGAN SOLIQLAR VA
MAJBURIY TO'LOVLAR HISOBINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI 20-24

FALSAFA FANLARI

Парниева Айгуль

ФИЛОСОФИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ПРОСТРАНСТВО
СМОЛООБРАЗОВАНИЯ И ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ХХІ ВЕКА И
СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 25-30

FILOLOGIYA FANLARI

Tursunova Farangiz

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI
JIHATLARI 31-33

Jo'rayeva Nozimaxon

O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING KO'P MA'NOLILIGI: SEMANTIK
KENGLIK VA KONTEKSTUAL O'ZGARUVCHANLIK 34-38

Inatova Jasmina

ARAB YOZUVIDAN LOTINGA O'TISH JARAYONI VA MUAMMOLARI 39-42

Mavjudboyeva Mardona

DOSTONLARDA TUSH MOTIVINING O'RNI 43-47

Tilaboyeva Musobar, Xusniddinxonova Mahzuma

GEORGE ORWELL ASARLARIDA TOTALITAR JAMIYAT TANQIDI ZAMONAVIY
KONTEKSTDA 48-50

Xamidova Go'zal

ZADIE SMITH ASARLARIDA ZAMONAVIY JAMIYAT TASVIRI 51-53

Adasheva Durdona

FEMINIZM ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QANDAY AKS ETADI 54-57

<i>Erkinov Ma'murjon</i> TARIXIY ROMAN: QIYOSIY-NAZARIY TAHLIL (INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)	58-62
<i>Zokirjonova Madina</i> COLLOQUIAL LANGUAGE IN "DOWN AND OUT IN PARIS AND LONDON" A REFLECTION OF CLASS AND IDENTITY	63-65
<i>Azimova Anisa</i> KINETIC SIGNS AND EMOTIONAL CONCEPTUALIZATION IN UZBEK AND ENGLISH DISCOURSE	66-71
<i>Isanova Feruza</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINLARINING YASALISH USULLARI	72-77
YURIDIK FANLAR	
<i>Bakhromova Laylo</i> IMPROVING INTERNATIONAL ANTI-MONEY LAUNDERING STANDARDS: PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPLEMENTATION AND PROPOSALS FOR ENHANCING EFFECTIVENESS	78-86
<i>Abdullayeva Sabohat</i> KRIPTOAKIVLAR ANONIMLIK XUSUSIYATINING HUQUQIY TABIATI: NAZARIY VA DOKTRINALI YONDASHUVLAR	87-90
<i>Muhammadjonova Gulasal</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGINI TA'MINLASH MUAMMOLARI	91-93
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Omonova Muxlisa</i> DEONTOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI	94-96
<i>Tadjibayeva Gavxaroy, Nazarov Abdug'affor</i> EKOLOGIK MADANIYAT ASOSIDA SALOMATLIKNI SAQLASHGA YO'NALTIRILGAN MASHG'ULOTLAR METODIKASI	97-100
<i>Abdulborieva Mexruza</i> TIZIMLI TAHLIL VA STEM YONDASHUVLARI ASOSIDA IQTISODIY YO'NALISH TALABALARI ANALITIK HAMDA KREATIV FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI: AMALIY-METODIK MEXANIZMLAR	101-106
<i>G`ulomova Moxinur</i> BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI DARSLARIDA NOODATIY TOPSHIRIQLAR	107-110
<i>Boboyeva Iroda, Olimjanova Jasmina</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	111-118
<i>Ismoilov Ravshan</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI RESURSLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	119-123
<i>Abduvaliyeva Farida</i> MULTIMEDIA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI DIDAKTIK JIHATLARI	124-127

<i>Эркинова Солохидинова Ранохон, Абдуазизова Вероника</i> МОТИВАЦИОННО ЦЕННОСТНЫЙ КОМПОНЕНТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	128-130
<i>Абдулбориева Мехруза</i> РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ВУЗЕ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДИКА И РЕЗУЛЬТАТЫ ЭКСПЕРИМЕНТА	131-134
<i>Jalolova Shahnoza</i> THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS OF DISTANCE LEARNING AND FOREIGN LANGUAGE TEACHING	135-139
<i>Usmanova Nodira</i> USE OF NEW INNOVATIVE METHODS IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS	140-143
<i>Sodiqova Sevara</i> LINGUISTIC AND COMMUNICATIVE ASPECTS OF ENGLISH SPEAKING DEVELOPMENT THROUGH PROJECT-BASED LEARNING	144-149

FILOLOGIYA FANLARI

TURKIY TILLARDA YUZ IFODASI VA ULARNING O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHLARI

Tursunova Farangiz Dildorbekovna

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: tursunovaf@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tillarda yuz ifodasining lingvistik ifodalanishi, uning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz va tatar tillarida mimikani ifodalovchi leksik birliklar, frazeologizmlar hamda metaforalar qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Maqolada asosiy emotsiyalarni ifodalovchi so'zlarning umumiy turkiy ildizga ega ekanligi, shuningdek, madaniy va tarixiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan farqlar yoritilgan. Bundan tashqari, turli tillarda yuz ifodasining obrazli ifodalanishi va ularning kommunikativ funksiyalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari turkiy tillarning tipologik o'xshashligi bilan birga milliy-madaniy xususiyatlarini ham ochib beradi.

Kalit so'zlar. turkiy tillar, yuz ifodasi, mimika, emotsiya, leksika, frazeologiya, metafora, qiyosiy tahlil, lingvistika, noverbal kommunikatsiya, madaniy omil, semantika.

FACIAL EXPRESSIONS IN TURKISH LANGUAGES AND THEIR SIMILARITIES AND DIFFERENCES

Tursunova Farangiz Dildorbekovna

PhD student at Kokand State University

Annotation. This article analyzes the linguistic representation of facial expressions in Turkic languages, its similarities and differences. The study comparatively studies lexical units, phraseologisms and metaphors expressing facial expressions in Uzbek, Turkish, Kazakh, Kyrgyz and Tatar languages. The article highlights the fact that the words expressing the main emotions have a common Turkic root, as well as the differences that have arisen under the influence of cultural and historical factors. In addition, the figurative representation of facial expressions in different languages and their communicative functions are considered. The results of the study reveal the typological similarities of Turkic languages, as well as their national and cultural characteristics.

Keywords: Turkic languages, facial expressions, facial expressions, emotions, lexis, phraseology, metaphor, comparative analysis, linguistics, nonverbal communication, cultural factor, semantics.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i8/n06>

Yuz ifodasi inson kommunikatsiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u hissiy holatni, niyatlarni va so'zlovchining munosabatini ifodalashda katta rol o'ynaydi. Mimik harakatlar noverbal muloqotga tegishli bo'lsa-da, ular til tizimida leksik, frazeologik va sintaktik vositalar orqali faol aks etadi. Ayniqsa, turkiy tillarda yuz ifodasini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi, chunki ular umumiy tarixiy ildizga ega bo'lishiga qaramay, madaniy, ijtimoiy va tarixiy omillar ta'sirida sezilarli o'xshashliklar bilan birga muhim farqlarni ham namoyon etadi. [1; B.7].

Turkiy tillar oilasiga o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz, tatar va boshqa ko'plab tillar kiradi. Ushbu tillar Yevrosiyo hududining keng maydonida rivojlangan bo'lib, turli madaniyatlar va til tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan. Shunga qaramay, ularda umumiy struktur asos saqlanib qolgan bo'lib, bu, xususan, yuz ifodasini ifodalash usullarida yaqqol ko'rinadi. [2; B.87].

Leksik darajada o'xshashliklar yuz ifodasi bilan bog'liq asosiy emotsiyalar va harakatlarni ifodalovchi umumiy ildizlarga ega so'zlarning mavjudligida namoyon bo'ladi. Masalan, kulish yoki jilmayishni bildiruvchi fe'llar o'xshash kelib chiqishga ega: o'zbek tilida kulmoq, turk tilida gülmek, qozoq tilida күлу. Bu so'zlar qadimgi turkiy shakllarga borib taqaladi va yaqin ma'noni saqlab qolgan. Xuddi shuningdek, "yig'lamoq" fe'li — yig'lamoq (o'zb.), ağlamak (turk.), жылау (qozoq) — ham genetik jihatdan bog'liqdir. Bunday o'xshashliklar tillar o'rtasidagi chuqur aloqani ko'rsatadi hamda insonning asosiy emotsional reaksiyalari til orqali universal tarzda ifodalanishini tasdiqlaydi. Quydagi jadvalda ko'rsatilgan bazi so'zlar umumiy turkiy ildizga ega: [3; B.67.].

O'zbekcha	Turkcha	Qozoqcha	Qirg'izcha	Tatarча
jilmaymoq	gülümsemek	жымию	жылмаюу	елмаю
kulmoq	gülmek	күлу	күлүү	көлү
qahqaha otmoq	kahkaha atmak	қарқылдап күлу	каткырып күлүү	кычкырып көлү
yig'lamoq	ağlamak	жылау	ыйлоо	елау
xo'rsinmoq	iç çekmek	күрсину	үшкүрүнүү	көрсенү
hayron bo'lmoq	şaşırmak	таңғалу	таң калуу	гажәпләнү
qo'rqmoq	korkmak	қорқу	коркуу	курку
achchiqlanish	sinirlenmek	ашулану	ачуулануу	ачулану
uyalmoq	utanmak	ұялу	уялуу	оялу

Biroq leksik tizim faqatgina asl turkiy so'zlar bilan cheklanmaydi. Ayrim turkiy tillarda, ayniqsa turk va o'zbek tillarida arab va fors tillaridan kirib kelgan ko'plab o'zlashmalar mavjud. Masalan, turk tilidagi tebessüm etmek va o'zbek tilidagi tabassum qilmoq ko'proq rasmiy yoki adabiy uslubda ishlatiladi. Qozoq tilida esa ko'proq asl turkiy shakllar saqlanib qolgan bo'lib, bu uning tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq. Shunday qilib, leksik farqlar nafaqat til tizimi, balki madaniy-tarixiy jarayonlarni ham aks ettiradi. [4; B.77.].

Frazeologik daraja o'xshashlik va farqlarni yaqqol namoyon etuvchi eng muhim sohalardan biridir. Barcha turkiy tillarda yuz a'zolarining harakatini ifodalovchi barqaror iboralar keng tarqalgan. Masalan, "qoshini chimirmoq" iborasi o'zbek tilida qoshini chimirdi, turk tilida *kaşlarını çattı*, qozoq tilida *қасын тўйди* shaklida uchraydi. Ushbu misollarda umumiy tuzilma kuzatiladi: yuz a'zosini bildiruvchi ot va uning holatini o'zgartiruvchi fe'l. Bu esa tillarning tipologik o'xshashligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, farqlar obrazlilik va ekspressivlik darajasida namoyon bo'ladi. Masalan, "burnini ko'tarmoq" iborasi o'zbek tilida burnini ko'tarmoq, turk tilida burnu havada olmak, qozoq tilida esa *мұрнын көкке көтеру* shaklida ifodalanadi. Ma'no bir xil — kibr yoki mag'rurlik — bo'lsa-da, obrazlar turlicha: turk tilida "burni havoda", qozoq tilida esa "burnini osmonga ko'tarmoq" tarzida ifodalanadi. Bu esa turli xalqlarning obrazli tafakkuri va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. [5; B.98.].

Mimikani metaforik ifodalash ham muhim tahlil obyektidir. Turkiy tillarda yuz ifodasi ko'pincha rang, yorug'lik yoki jismoniy holat bilan bog'liq metaforalar orqali ifodalanadi. Masalan, "yuzi qoraydi" iborasi g'azab yoki norozilikni bildiradi va uning o'xshash shakllari mavjud: *yuzi qoraydi* (o'zb.), *yüzü karardı* (turk.), *жүзі қараңғыланды* (qozoq). Bu yerda qorong'ilik salbiy emotsiyalar bilan bog'langan umumiy metafora sifatida namoyon bo'ladi.

Aksincha, ijobiy holatlar yorug'lik orqali ifodalanadi: *"ko'zi chaqnadi", gözleri parladi, көзи жайнап кетти.*

Shunga qaramay, har bir til o'ziga xos jihatlarni namoyon etadi. O'zbek tilida ko'proq yumshoq va estetik ifodalar uchraydi, masalan yuzi ochildi, bu quvonch yoki yengillikni bildiradi. Qozoq tilida esa ko'proq ekspressiv va kuchli obrazlar ishlatiladi, masalan *қабაғы тўйілді.* Turk tili esa ushbu ikki tendensiya o'rtasida muvozanatni saqlaydi.

Madaniy omil yuz ifodasini ifodalovchi til vositalarining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Markaziy Osiyo xalqlarida, jumladan o'zbek va qozoq madaniyatlarida, hissiyotlarni jilovlash va bosqlik qadrlanadi. Bu esa tilda bilvosita va yumshoq ifodalar qo'llanilishiga olib keladi. Turk jamiyatida esa, ayniqsa zamonaviy sharoitda, hissiyotlarni ochiq ifodalash kengroq tarqalgan. Shuningdek, gender farqlari ham kuzatiladi: ayollar mimikasi ko'proq yumshoq emotsiyalar orqali tasvirlansa, erkaklarniki nisbatan qat'iyroq ifodalar bilan beriladi. Turkiy tillarning agglutinatив xususiyati sintaktik darajada ham mimikani ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, *u kulib yubordi* (o'zb.), *ол күлiп жіберді* (qozoq), *aniden güldü* (turk) kabi konstruksiyalar harakatning to'satdan yuz berishini bildiradi. Bu esa grammatik vositalarning boyligini ko'rsatadi. [6; B.56].

Globalashuv va raqamli texnologiyalar rivoji natijasida emotsiyalarni ifodalash usullari ham o'zgarib bormoqda. Emoji, stiker va internet-memlar barcha tillarda, jumladan turkiy tillarda ham keng qo'llanilmoqda.



Rasm 1. Raqamli kommunikatsiyada qo'llaniladigan yuz ifodalari (emoji shaklida)

Rasm 1. da ko'rsatilgan belgilar til farqidan qat'i nazar hissiy holatni tez yetkazadi. Biroq, bunday umumlashuvga qaramay, an'anaviy til vositalari o'z milliy xususiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillarda yuz ifodasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning o'xshashliklari umumiy kelib chiqish va tipologik xususiyatlar bilan bog'liq, farqlari esa madaniy, tarixiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan.

Leksika, frazeologiya va metaforalar inson emotsiyalarining universal jihatlari bilan birga har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashini ham aks ettiradi. Bu mavzuni o'rganish til tizimini chuqurroq anglash bilan birga, turkiy xalqlarning tafakkuri va madaniyatini ham yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdullayev A. A. Umumiy tilshunoslik asoslari. — Toshkent, 2010.
2. Crystal D. The Cambridge encyclopedia of the English language. – Cambridge university press, 2018.
3. Johanson L., Csató É. The Turkic Languages. — London: Routledge, 1998. Ekman P. Emotions revealed. New York: St. – 2003.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. — Toshkent, 2000–2005.
5. Rahimov R. Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi. — Toshkent, 2015.
6. Wierzbicka A. Emotions across languages and cultures: Diversity and universals. – Cambridge university press, 1999.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI

2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 8-son (aprel, 2026-yil). – 150 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.